



## DIDAKTIK O`YINLARNING BOLA RIVOJLANISHIDAGI O`RNI

Shermatova Xolbibi Abdurasulovna  
Jarqo`rg`on tumani 14-sonli DMTT metodisti,  
Merc Corps xalqaro tashkiloti mentori.

### **Annotatsiya:**

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik o'yinlarning ahamiyati, mashg'ulot davomida didaktik o'yinlarni o'ziga xos tarzda tashkil etish haqida va bolalarda o'yinlar orqali turli umuminsoniy fazilatlarini tarbiyalash, o'yining bola hayotidagi o'rni yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** o'yin, didaktik o'yinlar, o'yining qoidasi, amaliy faoliyat, O'yining vazifasi "foydali vitaminjonlar" o'yini, tafakkur mustaqilligi, rag'batlantirish.

### **Аннотация:**

В статье описано значение дидактических игр в дошкольных образовательных организациях, своеобразная организация дидактических игр в процессе обучения, воспитание у детей различных общечеловеческих качеств посредством игр, роль игр в жизни ребенка.

**Ключевые слова:** игра, дидактические игры, правила игры, практическая деятельность, задание самостоятельность мышления, стимулирование.

### **Abstract:**

The article describes the importance of didactic games in preschool educational organizations, the organization of didactic games in a unique way during training, and the education of various universal human qualities in children through games, the role of games in a child's life. .

**Key words:** game, didactic games, rule of the game, practical activity, task of the game, independence of thinking, stimulation

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatlari, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo‘lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta’lim tizimni yaratish ko‘zda tutildi. Biz bilamizki maktabgacha ta’lim tashkiloti ostonasiga ilk qadam qo‘ygan bolaning faoliyatida o‘yin asosiy o‘rinni egallaydi. O‘yin ularning eng sevimli mashg’uloti bo‘lib, ular har qanday mashg’ulotni o‘yin bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan mohir tarbiyachi bolalarning faoliyatidan ularning sevimli mashg’uloti - o‘yinni siqb chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Didaktik o‘yinlar texnologiyalari o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari: Intelektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy ahloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Didaktik o‘yinlar nazariy, amaliy jismoniy, roli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha turlari bo‘yicha ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi o‘yinlar alohida o‘ringa ega bo‘lib bormoqda. Didaktik o‘yinlar bolalarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish hulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, ahloq odob o‘rgatish, yangi bilimlar o‘rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yinlarga ajratiladi.

O‘yin - bola hayotining uzviy qismidir. O‘yin orqali bola atrof - muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o’simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi. Didaktik o‘yin –maktabgacha yoshdagagi bolalarning yosh xususiyatlariga, aqliy imkoniyatlariga mos keladigan ta’lim berish metodidir. O‘z ishining tajribali tarbiyachi bu o‘yindan nofaol bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qo‘rmasdan bajarishlari uchun foydalanadi. Didaktik o‘yin bolalarning

amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashg'ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, didaktik o'yin bolalarning aqliy faoliyatlarini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usuldan foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi. Didaktik o'yinlar jarayonida bolalar o'yin qoidalariga qat'iy rioya qilishga o'rganadilar, inoqlik his - tuyg'ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi. Faoliyat jarayonida didaktik o'yinlar bolalarning xususiyatiga ko'ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bolalarni toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkonini yaratadi. Didaktik o'ylarni xilma-xil tarzlarda tashkil qilish mumkin. Qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin.

Didaktik o'yinlar maqsadiga ko'ra 4 omilni o'z ichiga oladi:

1. O'yinning vazifasi.
2. O'yinning harakati.
3. O'yinning qoidasi.
4. O'yinning yakuni.

Har bir didaktik o'yinni boshlashdan oldin bolalarga o'yinning qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekanini tarbiyachii tomonidan tushuntiriladi. Bolalar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarini mustahkamlash, ijodiy tafakkurini shakllantirish, tasavvurini kengaytirishga yo'naltirilgan didaktik o'yinlardan biri «Foydali vitaminjonlar» deb nomlanadi. Bu o'yin jihizi tana a'zolarining vitaminlarga boy bo'lgan mahsulotlar suratlaridir. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga harakatdagi birorta tana a'zosi suratini ko'rsatadi. Ular ular qaysi tana a'zolriga tegishli ekanligini topib aytishadi. Masalan, soch. Unga qaysi mahsulot ko'proq kerak boladi. Tish, qaysi mevallaar ko'poq kerak va h.k. So'ngra bolalar shu surat mazmuni asosida bolajoonlat tana a'zolari uchun, qanday mahsulotlar foyali ekanliklarianni va u mahsulotlar qayerlarda bo'lishi, tana a'zolirii uchun ko'proq nimalarni istemol qilish kerakligi haqida tasavvur qilgan holda kichik hikoyachalar tuzishga yo'naltirilishi talab qilinadi. Kichik hikoyachalarda suratdagi mmahsulotlarning bir-biri bilan suhbatini ham tashkil etish mumkin. Suhbatlarning mazmunini bolalarning o'zları belgilashadi. SHu tariqa ularda tafakkur mustaqilligi, ijodkorlik va yaratuvchanlik hissi shakllana boradi.





O‘yin qatnashchilarini rag‘batlantirish, maqtash, yaxshi qatnashganliklari uchun ularga yetakchi rolni berish, ba’zan esa o‘yinlarda foydalanilgan o‘yinchoqni o‘ynashga berish yoki mevalarni yeishiga berish mumkin, ammo bolalar bunday mukofotlarni olaman deb har qanday yo‘l bilan bu ishga intilishlariga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Didaktik o‘yinlarni amalda qo‘llash shart-sharoitlar didaktik o‘yinlarni tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinadi. Har bir didaktik o‘yin mashg‘ulotlariga o‘ziga xos xavfsizlik talablari qo‘yiladi. Bu xavfsizlik talablariga to‘liq rioya qilinishi har bir tashkilotchining doimiy e’tiborida bo‘lishi lozim. Bundan tashqari har bir didaktik o‘yin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini to‘g‘ri belgilash va unga rioya qilishning o‘ziga xos asoslarini bilish va darsning maqsadiga muvofiq qo‘llash talab qilinadi. Didaktik o‘yin turlarini tanlash me’zonlari: - ishtirokchilar tarkibi bo‘yicha o‘g‘il-bolalar, qiz-bolalar, qiz bolalar, o‘smirlar katta yoshdagilar uchun o‘yinlar; - ishtirokchilar soni bo‘yicha –yakka, juftlikda kichik guruh, sinf jamoasi, raqobotdosh komandalar, guruhlar aro va ommaviy o‘yinlar ; - o‘yin jarayoni bo‘yicha – fikrlash, o‘ylash topog‘onlik, harakatlar musobaqa va boshqalarga yo‘naltirilgan yo‘llar; - vaqt me’yori bo‘yicha dars, mashg‘ulot vaqtining reja bo‘yicha ajratilgan qismi, o‘yin maqsadiga erishguncha, g‘olib yoki g‘oliblar aniqlanguncha davom etadigan va boshqa o‘yinlar.

Endi sizlar bilan bir nechta didaktikning o‘yinning maqsad va tavsifini ko`rib chiqamiz.

➤ Foydali vitaminjonlar o‘yini





## Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5<sup>th</sup> July, 2024

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

O'yinning maqsadi bolalarga foydali bo'lgan meva sabzavotlar, oqsillarga boy bo'lgan oziq-ovqatlarni tana a'zolarining qayerlariga ko'proq foydaliligini bilib olish, hamda mayda qo'l motorikasini rivojlantirishdan iborat.

Kerakli jihozlar: prishibkalar tana a'zolari suratlari meva-sabzavotlar, sut, go'sht mahsulotlar rasmlari, kley qaychi kerak bo'ladi.

O'yinning borishi: bolalarga rasmlarni tayyor holda tarqatiladi va ular qaysi vitaminga boy mahsulotlar tana a'zolarining qay biriga kerakligini tanlab prishibkalarni suratlarga qistirib chiqishadi.

**Xulosa** o'rnida aytish mumkinki, didaktik o'yinlar orqali tarbiyachilar ham o'z ustida ishlaydi hamda mashg'ulotlarda bolalarning yaxshi qiziqarli bilim olishiga zamin yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.O.Tolipova,A.T.G'ofurov "Biologiya o'qitish metodikasi". Toshkent. 2004. 2. B.Sobirov. Interfaol metodlar. Farg'ona. 2020.
2. M. Karimova. Nutq o'stirish mashg'ulotlari jarayonlarida didaktik o'yinlardan foydalanish. Samarqand: SamDU, 2020
3. M.Marufova "Bolalarni nutqini o'stirish nazariyasi va metodikasi". Samarqand-2022 Ma'ruzalar matni.